Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	1087
Nazarov Qilich Xolmuradovich	
Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan	1092
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich	
O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida).....	1097
Qosimova Nodira Saidovna	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosi sifatida innovatsiyalar.....	1102
Azizova Maliha Farrux qizi	



Влияние инвестиций на инновационное развитие и повышение конкурентоспособности экономики узбекистана	1106
Максудова Шахзода	
Возможности снижения затрат на логистику за счет цифровых технологий	1112
Олимова Бахора Шухратовна	
Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri	1116
Sultonov Omon Juma o'g'li	
Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning ta'siri	1121
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li	
Роль управления производством в условиях модернизации экономики	1125
Гулов Мухтор Очилович	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyati	1129
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
Роль цифрового маркетинга в продвижении туристических направлений	1136
Муродова Наргиза Уткировна	
Развитие финансовых рынков в странах снг: проблемы и перспективы	1140
Рузиев Зафар Икрамович, Каримов Ислон Ураз угли	
Современные инструменты продвижения бренда в условиях цифровой экономики	1145
Темирова Феруза Сагдуллаевна	
"Raqamli asrda axborot xavfsizligi: it texnologiyalar bilan xavfsizlikni ta'minlash yo'llari"	1149
Sherzod Rajabov	
Государственное регулирование инвестиционной деятельности: проблемы и направления совершенствования	1152
Шухрат Турсунов, Икромов Хасан Зафарович	
Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems	1157
Mubina Toirova	
Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках	1162
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar	1167
A'zam Qutbiddin A'zam-zoda	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari	1173
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida	1179
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari	1186
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Budjetlashtirish bo'yicha tashkiliy va uslubiy yondashuvlar tahlili.	1195
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari	1200
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili	1204
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish	1213
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1219
Ruziyev G'anisher Usarovich	
Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida)	1225
Xoshimova Sevara Baxromovna	
Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari	1229
Kuldoshev Asliddin Tursunovich	



IQTISODIY-EKOLOGIK TIZIMLARNI BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING ILMIY ASOSLARI



Kuldoshev Asliddin Tursunovich

PhD, dotsent, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

asli-0708@mail.ru

ORCID: 0009-0007-5121-6863

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillar nazariy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotda iqtisodiy-ekologik tizimni samarali boshqarishga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar, ushbu tizimlarning barqarorligini ta'minlaydigan boshqaruv omillari va shart-sharoitlar, shuningdek, ekomenejment tizimining tarkibiy elementlari nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, ekologiya, boshqaruv, samarali boshqaruv, barqarorlik, ekomenejment.

Abstract: This article theoretically examines the factors influencing the management of economic-ecological systems. The study analyzes the external and internal factors affecting effective management of these systems, the managerial factors and conditions ensuring their sustainability, and the structural elements of the eco-management system.

Key words: economy, ecology, management, effective management, sustainability, eco-management.

Аннотация: В статье теоретически исследуются факторы, влияющие на управление экономико-экологическими системами. Рассматриваются внешние и внутренние факторы эффективного управления, управленческие факторы и условия обеспечения устойчивости систем, а также структурные элементы системы экомеджмента.

Ключевые слова: экономика, экология, управление, эффективное управление, устойчивость, экомеджмент.

KIRISH

Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy barqarorlikni shakllantirish ishlab chiqarish jarayonlarini maqbul va samarali tarzda boshqarishni talab etadi. Ushbu masalani o'rganishning muhim uslubiy yondashuvlaridan biri – iqtisodiy-ekologik tizimlarning barqaror rivojlanish yo'nalishida boshqaruv omillarini aniqlash va tahlil qilishdan iboratdir.

Iqtisodiy tadqiqotlarda "omil" – ishlab chiqarish va iqtisodiy jarayonni harakatlantiruvchi hamda uning natijalariga ta'sir ko'rsatuvchi kuch sifatida ta'riflanadi. Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi



omillarni o'rganishda tadqiqotchilar turli yo'nalishlarda izlanishlar olib borgan. Ba'zi tadqiqotlar bu masalani resurslar nuqtai nazaridan yondashgan bo'lsa, boshqalari natijaviy holat orqali tahlil qilgan. Jumladan, iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarish va ularga ta'sir etuvchi omillar quyidagi to'rtta guruhga ajratilgan: resurslarga asoslangan, texnologik, umumfalsafiy hamda iqtisodiy-ekologik omillar.

Resursli omil guruhi – insonlarning turli resurslar asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda yerning tabiiy zahiralari va mavjud imkoniyatlarini hisobga olib, boshqaruvni tashkil etishga qaratilgan. Bunda tabiiy resurslarning iqtisodiyotga hamda atrof-muhitga ta'siri o'rganiladi.

Texnologik omil guruhi – fan va texnika taraqqiyotidan oqilona foydalanish orqali amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyatini ifodalaydi. Bu yo'nalishda ilmiy salohiyat va ishlab chiqarish kuchlari boshqaruv mexanizmlari orqali barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, fan-texnika taraqqiyoti mahsulot birligiga sarflanadigan resurslarni tejashga yordam bergani holda, ishlab chiqarish hajmining ortishi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umumfalsafiy omil guruhi – iqtisodiy-ekologik tizimlarni tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni jamiyat taraqqiyotining tabiiy salohiyati bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Ushbu omil guruhi iqtisodiy-ekologik tizimlarning sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi jihatlar sifatida qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy-ekologik omillar guruhi tizimni muvozanat qonuniyatlari asosida boshqarishni nazarda tutadi. Bunda iqtisodiy-ekologik tizimlar tarkibidagi gorizont va vertikal aloqalarni shakllantirish, tabiiy resurslar salohiyati barqarorligiga asoslangan barqaror rivojlanishni ta'minlashga intilish asosiy yo'nalish hisoblanadi. Mazkur omilga muvofiq, ekologik barqarorlik iqtisodiy-ekologik tizimlar rivojlanishining asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. Bunga aholining o'sish sur'ati, fan-texnika taraqqiyotining mahsulotlar sifati va ekologik sofligini oshirishdagi roli, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, tabiatdan oqilona foydalanish siyosati va aholining turmush darajasi kabi omillar kiradi.

Boshqa manbalarda iqtisodiy-ekologik tizimlarning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ularning tarkibiy tuzilmalari bilan bevosita bog'liq holda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik guruhlariga bo'linadi:

Tabiiy-ekologik omillar – tabiiy-iqlim sharoiti, yer tarkibi, yer resurslari, mavjud suv manbalari, yer osti va usti boyliklari;


Iqtisodiy omillar – hududning ixtisoslashuvi, iqtisodiy salohiyati va tarkibi, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish darajasi, investitsion muhit;

Ijtimoiy omillar – demografik holat, ijtimoiy-madaniy omillar, aholi turmush darajasi, mehnat resurslari, salomatlik ko'rsatkichlari, ijtimoiy infratuzilma va ijtimoiy ta'sirlar.

Umuman olganda, bu omillar ichida ekologik omillar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular iqtisodiyotning ixtisoslashuvini belgilovchi asosiy manba hisoblanadi. Biroq, ulardan samarali va maqsadga muvofiq foydalanish ko'proq iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lib, bu ishlab chiqarish kuchlari orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy omillar esa inson hayotining ijtimoiy qamrovi sifatida talqin etiladi.

Mahalliy olimlar ham iqtisodiy-ekologik tizimlarning barqaror rivojlanishiga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, R. Alimov, Sh. Shodmonov va T. Jo'rayev tadqiqotlarida ishlab chiqarish omillari boshqaruvda asosiy vosita sifatida e'tirof etilgan. A. O'lmasov va A. Vaxobovlarsabuning ustigata'lim darajasi, iqtisodiy erkinlik, iqtisodiyotning ochiqligi, xalqaro bozordagi holat va demografik vaziyatni muhim omillar qatorida ko'rsatgan. I. Qayumova innovatsiyalar, biznes muhiti, axborot-kommunikatsiya tizimi va ta'lim darajasini o'sish sifati omillari deb baholaydi. T. Shodiyev esa aholining savodxonligi, axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi hamda ishlab chiqarish samaradorligini asosiy ko'rsatkichlar sifatida belgilaydi.

Iqtisodiy-ekologik tizimlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ularning ta'sir darajasiga qarab tashqi va ichki omillarga ajratish mumkin. Tizimlarning barqaror rivojlanish darajasi aynan ushbu omillarning ijobiy yoki salbiy ta'siriga bevosita bog'liqdir. Tashqi muhit omillari quyidagilarni qamrab oladi: iqtisodiy-ekologik tizimlarning geografik holati, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy muhit, fan-texnika taraqqiyoti va makrodarajadagi tarkibiy komponentlar. Ichki muhit omillari esa bevosita boshqaruvga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlar bo'lib, ular tarkibiga tabiiy resurslar, demografik holat, ekologik madaniyat, jamiyat boshqaruvi, tashkiliy tuzilma, ishlab chiqarishning ekologizatsiyalashuvi va ekologik investitsiya holati kiradi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy-ekologik tizimni samarali boshqarishning tashqi va ichki omillar harakati¹

Iqtisodiy-ekologik tizimlarning geografik holati ularni boshqa tizimlardan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlardan biridir. Bu holat har bir tizimning o'z hududi doirasida shakllanadigan imkoniyatlari bilan belgilanadi. U ikki turda ko'rib chiqiladi: potensial geografik holat (foydalanilmagan imkoniyatlar) va amalda foydalanilayotgan holat. Birinchisi – mavjud resurslar zaxirasining boshqaruv salohiyatini, ikkinchisi esa – to'g'ridan-to'g'ri foydalanilayotgan resurslar orqali amalga oshirilayotgan boshqaruvni anglatadi. Har ikkisi tizimning rivojlanish istiqbollari va barqarorligi uchun muhim asos hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy muhit sanoatlashuv jarayonining ijtimoiylashuvi bilan uzviy bog'liq. Ushbu muhitda inson va tabiat o'rtasidagi aloqalarga doir ma'naviy qarashlar shakllanadi. U jamiyatning siyosiy holati, ekologik ong darajasi, ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, iqtisodiy-ekologik tizimlarning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida maydonga chiqadi.

Fan-texnika taraqqiyoti – iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishda asosiy omillardan biridir. U ekologik jihatdan samarali, kam chiqimli va resurs tejamkor texnologiyalarni yaratish imkonini beradi. Biroq, fan-texnika taraqqiyotining ijobiy ta'siri bilan bir qatorda, ishlab chiqarish hajmining ortishi tufayli atrof-muhitga antropogen bosim ham kuchayadi. Shu sababli, fan-texnika taraqqiyoti va fan-texnika inqilobi o'rtasidagi farqni aniqlash zarur: birinchisi mavjud texnologiyalarni takomillashtirish orqali rivojlanishni ta'minlasa, ikkinchisi esa tizimni tubdan yangilovchi texnologik burilishni anglatadi.

Makroiqtisodiy komponentlar – ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va institusional darajalardagi tavsifiy belgilarni o'z ichiga oladi. Ekologik komponentda tabiiy ofatlar, iqtisodiy omillarda tashqi aloqalarning diversifikatsiyasi, integratsion jarayonlar va xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirok muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy omillarda aholi o'sishi, migratsiya ko'rsatkichlari, boshqa tizimlarga ta'sir qiluvchi o'zgaruvchilar tahlil etiladi. Institusional omillar esa konstitutsiyaviy huquqlar, iqtisodiy va ekologik institutlar, atrof-muhitga nisbatan belgilangan normalar bilan bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy-ekologik tizimlarga ta'sir etuvchi omillar aniqlanishi uchun ilmiy maqolalar tahlili, statistik ma'lumotlar to'plami va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Ma'lumotlar kontent tahlil va solishtirma tahlil usullari orqali baholandi hamda omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mantiqiy izchillik asosida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimga majmuaviy tarzda ta'sir etadi. Bir omil guruhida yuzaga kelgan o'zgarish boshqa omil guruhiga ham bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun bu omillar o'zaro sinergetik samaradorlikni vujudga keltiradi. Tahlil jarayonida har bir omil alohida baholanadi, biroq tizimli yondashuvda ular yaxlit tuzilmaning o'zaro bog'liq elementlari sifatida qaraladi.

Iqtisodiy-ekologik tizimlarni shakllantiruvchi asosiy ichki omillardan biri tabiiy sharoit va resurslardir. Ushbu omil tizimning amal qilish darajasi va undan foydalanish imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Iqtisodiy taraqqiyot ko'p hollarda tabiiy resurslarga bog'liq holda shakllanadi. Resurslarning mavjudligi xalq xo'jaligi tarmoqlarining

¹ Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Xususan, qishloq xo'jaligi, sug'orma dehqonchilik, lalmi dehqonchilik va yaylov chorvachiligi orqali oziq-ovqat, texnik xomashyo va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo yalpi ichki mahsulotining 32 foizi ekologik soha resurslari hisobiga yaratiladi.

Ekologik resurslarning iqtisodiy o'sishga ta'siri kelajakda yanada ortib borishi kutilmoqda. Bu holat aholining son jihatdan o'sishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, oziq-ovqat va chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Bu esa jon boshiga to'g'ri keladigan me'yoriy iste'mol hajmlarini ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiyotning tabiiy xomashyo resurslari bilan ta'minlanganligi, uzoq yillar davomida ekologik qonuniyatlardan mustaqil, ehtiyotsiz tarzda baholangan. Ilm-fan va texnika yutuqlarining sanoat va qishloq xo'jaligida keng qo'llanilishi natijasida tabiat resurslari joylashuvi, ularning imkoniyatlari, tiklanish va o'z-o'zini tozalash qobiliyati bo'yicha ilmiy asoslar shakllangan.

"Eng kam xarajat evaziga yuqori daromad" tamoyiliga asoslangan ekstensiv rivojlanish ekologik muammolarga olib keldi. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq unumdorligining pasayishi natijasida hosildorlik kamaydi, insonlar salomatligi yomonlashdi, daromadlar tushdi va mehnat samaradorligi pasaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, tuproq unumdorligining 1 foizga pasayishi natijasida hosildorlikni tiklash uchun 10 foiz qo'shimcha xarajat talab etiladi. Shuningdek, tabiiy o'rmonlar kesilishi natijasida hosil bo'lgan ikkilamchi o'rmonlarning mahsuldorligi birlamchi o'rmonlarga teng bo'lmaydi.

Har yili butun dunyo bo'yicha qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish uchun zararli hasharotlar va kasalliklarga qarshi kurashda taxminan 2,5 trillion dollarlik mablag' sarflanadi. Bu raqam jahon byudjetining qariyb 10 foizini tashkil etadi. XX asrning ikkinchi yarmida insoniyatning xo'jalik faoliyati natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zarar va uning salomatlikka ta'siri jahonning yillik byudjetidan ham oshib ketgan.

Tabiatdan olinayotgan har bir mahsulot birligiga nisbatan bir necha, hatto o'ndan ortiq chiqindilar hosil bo'ladi. Bu chiqindilarning ko'pchiligi iqtisodiy qiymatga ega emas, xo'jalikda foydalanilmaydi, balki atrof-muhitni ifloslantirib, yaylovlarni egallaydi va inson salomatligiga xavf tug'diradi.

Yalpi milliy mahsulot hajmining oshishi chiqindi hajmining ortishiga olib keladi. Davlat bu chiqindilarning salbiy ta'sirini kamaytirish, aholining salomatligini tiklash uchun mablag' ajratadi. Ushbu xarajatlar yalpi milliy mahsulot hisobidan qoplanadi, ammo atrof-muhitning ifloslanish qiymati odatda hisobga olinmaydi. Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari rahbarlari yiliga muayyan daromad oladi, biroq ushbu korxonalar chiqindilar orqali havo, suv, tuproqni ifloslantiradi, qishloq xo'jaligi ekinlari va yaylovlarga zarar yetkazadi, aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlarda korxonaning ekologiyaga yetkazgan zarari to'lagan soliqlaridan ortiq bo'lishi mumkin, ammo bu zararlar hisob-kitob qilinmaydi. Shu bois, ko'plab hududlarda ekologik vaziyat tobora murakkablashib bormoqda.

Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'siri aniq, biroq ekologiyaning iqtisodiyotga ta'siri murakkab va bilvosita kechadi. Bu, asosan, tabiatning jamiyatga qarshi reaksiyasi orqali yuzaga chiqadi. Resurslardan xo'jasizlarcha foydalanish ularning qashshoqlashishiga, degradatsiyalashuvga olib keladi. Miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishlariga sabab bo'ladi. Bu esa iqtisodiy salohiyatning pasayishiga, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik tizimlarining izdan chiqishiga, sanoatning sifatli xomashyo bilan ta'minlanmasligiga olib keladi.

Demografik omil aholi sonining joriy yoki ma'lum davrdagi holatini aks ettiradi. Tabiat va iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik insoniyat tarixining eng qadimgi bosqichlaridan beri mavjud. Tabiat insonni oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshpana va boshqa moddiy ne'matlar bilan ta'minlab keladi. Inson esa tabiatdan estetik zavq oladi, sog'lig'ini tiklaydi va barcha zarur moddiy ne'matlarni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita yo'llar bilan oladi.

Boshida odamlar tabiat ne'matlaridan istaganicha va isrofona tarzda foydalangan. Vaqt o'tishi bilan ishlab chiqarish qurollari takomillashib, inson tafakkuri va ongining o'sishi natijasida ehtiyotkorlik yuzaga keldi. Bu ehtiyotkorlik ayniqsa ovchilik muvaffaqiyatsizlikka uchragan vaqtlarda yaqqol ko'zga tashlangan. Demak, insoniyat xo'jalik yuritishni qadimdan o'zlashtirgan.


Aholining moddiy ehtiyojlari global miqyosda qaralganda cheksiz va to'liq qondirilmaydigan ko'rinishdadir. Chunki aholi soni muntazam ortib bormoqda. Ammo tabiiy resurslar cheklangan. Shu bois, talab, ehtiyoj va moddiy ne'matlar o'rtasida katta tafovut mavjud. Bu esa iqtisodiyot va ekologiyani birlashtiradi. Natijada xo'jalikni oqilona tashkil etish zaruriyati, shuningdek, birlamchi tabiiy resurslarni sun'iy materiallar bilan almashtirishga ehtiyoj kuchayib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, aholiga qulay ekologik sharoit yaratish hamda noyob tabiatni asrab-avaylash uchun jamiyatning barcha kuchlarini safarbar etish zarur. Shuningdek, hududiy va mahalliy ekologik muhitni yaxshilash, fuqarolar salomatligini muhofaza qilish dasturlarini ishlab chiqish va ularning ijrosini ta'minlash jamiyatda ekologik madaniyat darajasini yuksaltirish bilan bevosita bog'liq. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "...aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh



qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal qilib bo'lmaydi. Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik tuyg'usini tarbiyalash orqali erishish mumkin", – deya alohida ta'kidlangan.



2-rasm. Iqtisodiy-ekologik tizimlarning barqarorligini ta'minlashdagi boshqaruv omillari va shart-sharoitlari²

Iqtisodiy-ekologik tizimlarga ta'sir etuvchi omillarni tizimlilik, majmuaviylik va o'zgaruvchanlik tamoyillari asosida baholash zarur. Bu tamoyillarni uyg'unlashtirgan holda tizimning barqarorligini aniqlovchi omillarni ajratish va ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlash takror ishlab chiqarish, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning muvozanatli o'sishiga xizmat qiladi (2-rasm).

Barqaror rivojlanishga erishish uchun qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarida mavjud iqtisodiy zahiralarni kompleks tahlil qilish lozim. Bu jarayonda iqtisodiy-ijtimoiy omillar bilan bir qatorda, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar, urf-odat va an'analarga ham e'tibor qaratilishi zarur.

Ekomenjmentga oid xulosa:

"Ekomenjment" atamasi ilmiy adabiyotlarda 1960-yillardan boshlab shakllana boshlagan. Bugungi kungacha ham MDH davlatlarida, ham xorijiy mamlakatlarda ushbu tushunchaga yagona ta'rif mavjud emas.

Xorijiy olimlar – Th. Dyllick, N. Mefflerl, M. Kirchgeorg, G. Mueller-Christ, U. Steger, R. Welford, mahalliy tadqiqotchilar Z. V. Turiyeva, A. L. Bobrova, A. S. Grinina, Ye. I. Xabarova, Ye. M. Korotkova, shuningdek, o'zbek olimlaridan N. Yo'ldoshev, G. Shonazarova – ekomenjmentga nisbatan turlicha yondashuvni taklif etgan.

Masalan, Grey R., Bebbington J. va Uolters D. ekomenjmentni "kompaniyalarning atrof-muhitga nisbatan pozitsiyasini baholash, uni yaxshilash uchun siyosat va strategiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdagi faoliyatlar majmui"³ deb tariflaydi.

² Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³ Gray R, Bebbington J. Walters D., 1993, r.6.



Ba'zi mualliflar esa ekologik menejmentni «ekologik ongli korxona boshqaruvi» deb talqin qiladilar⁴.

Fischer H., Wucherer Q., Wagner B., Burschel S. esa bu tizimni «umumiy boshqaruv tizimining bir qismi bo'lib, ekologik siyosatni ishlab chiqish, amalga oshirish va unga rioya qilishni ta'minlovchi tizim» sifatida izohlaydi.⁵

Myuller K. fikricha, «ekomenejment bu – atrof-muhit bilan bo'lgan munosabatlarni boshqarishdir, u korxona menejmentining tarkibi emas»⁶.

MDH olimlaridan Ye. I. Xabarova ekomenejmentni «ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi maqbul muvozanatga erishadigan ekologik xavfsiz boshqaruv» deb belgilaydi⁷. Ye. M. Korotkov esa bu sohani «inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tartibga soluvchi boshqaruv sohasi» deb ko'rsatadi⁸. T. Xusanov, L. Bezborodov va Y. Bezborobov esa «ekomenejment – bu atrof-muhitni muhofaza qilishni to'liq tashkil etuvchi tizimdir», deb hisoblaydi⁹.

G. S. Feraru esa kengroq ta'rif beradi: «Ekomenejment – bu ekologik tamoyillar asosida ishlab chiqilgan, ekologik maqsadlar, loyihalar va dasturlarga erishishga qaratilgan faoliyat bo'lib, u ekologik adolatni ta'minlaydi va inson hayotini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi».

Shuningdek, «yashillashtirish» tushunchasi ham ekomenejment doirasida qo'llanadi – bu tabiiy muhit sifatini saqlagan holda resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutadi.

1992-yil Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan sammitda 21-asr kun tartibi qabul qilinib, atrof-muhitni boshqarish barqaror rivojlanishning asosiy elementi sifatida e'tirof etildi.

1993-yilda Urugvayda atrof-muhitni boshqarishga doir xalqaro standartlarni ishlab chiqish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan 207-sonli texnik qo'mita tuzilib, ISO 14000 standartlari ishlab chiqila boshlandi. 1996-yilda asosiy ISO 14001 standarti e'lon qilindi (2004-yilda yangilangan)¹⁰.

Yevropa Ittifoqi 1993-yilda EMAS – Ekologik menejment va audit sxemasini joriy etdi. 2000-yilda u qayta ko'rib chiqilib, ISO 14001 talablariga muvofiqlashtirildi¹¹.

Ekomenejment tizimining tarkibiy elementlari va amalga oshirish mexanizmi

Ekomenejment tizimi quyidagi o'zaro bog'liq tarkibiy elementlardan iborat:

tasdiqlangan ekologik siyosat;

ekomenejment tizimini saqlash uchun mas'ul xodimlar;

normativ talablar va huquqiy me'yorlarga muvofiqlikni nazorat qilish;

ekologik jihatlarni aniqlash va baholash bo'yicha protseduralar;

ekomenejment bo'yicha belgilangan maqsad va vazifalar;

ekomenejmentni qo'llab-quvvatlash dasturi;

tizimni hujjatlashtirish;

operatsiyalarni boshqarish;

o'qitish va malaka oshirish;

atrof-muhit monitoringi;

tuzatish va profilaktika choralari;

ekologik auditlar orqali tizim muvofiqligini davriy baholash;

boshqaruv tekshiruvlarini amalga oshirish.

Korxonada ekomenejment tizimini joriy etish va sertifikatlashtirish quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zda tutadi:

atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish;

korxonaning ekologik samaradorligini oshirish;

chiqindilar miqdorini kamaytirish va ularni qayta ishlashni yo'lga qo'yish.

Ekologik siyosat – bu korxonaning ekologik jihatlari bilan bog'liq faoliyat yo'nalishlarini belgilovchi va uning ekologik maqsad hamda vazifalariga erishish uchun asos yaratadigan rasmiy e'lon qilingan prinsiplari va majburiyatlaridir.

Ekologik faoliyatni rejalashtirish – bu ekologik menejment maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan tadbirlarni tizimlashtirish, ustuvorlikka ega bo'lgan faoliyat turlarini aniqlash va ularni soddalashtirishga qaratilgan muhim boshqaruv funksiyasidir.

4 Dyllick T., 1992. S. 153; Kostka S., 1997. S. 136; Winter G., 1990. r. 51

5 Fischer N., Wucherer S., Wagner V., Burschel S., 1997. c. 343

6 Mueller K., 2001. r. 8

7 Xabarova YE.I, s. 12

8 Korotkov E. M." 1998" s 12

9 Xusanov T., Bezborodoye A., Bezborodov TO., s. 23

10 <http://www.iso14001-register.de>

11 Sravneniye sxemi EMAS i standart ISO 14001



Ichki va tashqi ekologik monitoring – bu moddiy va energetik resurslar iste'molini minimallashtirish, chiqindi va ifloslantiruvchi moddalar chiqishini kamaytirish, shuningdek, zarur hollarda rejadan tashqari (qo'shimcha) ekologik chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xodimlarni motivatsiyalash quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

xodimlarning atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish jarayoniga faol jalb qilinishi;

ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirish.

Ichki atrof-muhit monitoringi va ekomenejment – bu korxonaning ekologik faoliyati natijalarini doimiy nazorat qilish va rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan og'ishlarni erta aniqlashga qaratilgan faoliyatdir.

Ekologik tadbirlar natijalarini tahlil qilish va baholash – bu indikatorlarni tanlash, tegishli ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, samaradorlik mezonlariga ko'ra baholash, hisobot berish va ma'lumot almashish orqali boshqaruv qarorlarini asoslash funksiyasidir.

Atrof-muhitni boshqarish tizimini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish – bu funksiyaning doirasida tashkilot mavjud yoki ehtimoliy nomuvofiqliklarga javob berish tartibini ishlab chiqishi, amaliyotga tatbiq etishi va doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashi lozim.

Atrof-muhitni boshqarishning amalga oshirish mexanizmi – bu hozirgi kunda xalqaro miqyosda shakllangan tajribalarga tayanib, ekomenejment tizimlarini joriy etish, ulardan samarali foydalanish va bu yo'nalishda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladigan tizimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

ISO 14001:2004. Environmental management systems – Requirements with guidance for use. International Organization for Standardization, 2004.

ISO 14000 family – Environmental management. International Organization for Standardization. <https://www.iso.org/iso-14001-environmental-management.html>

European Commission. Eco-Management and Audit Scheme (EMAS). Revisions and Guidelines, 2000.

Dyllick T., Muff K., Kirchgeorg M., Mueller-Christ G., Steger U., Welford R. Sustainable management concepts in eco-management. Berlin: Springer, 1998.

Grey R., Bebbington J., Walters D. Accounting for the Environment. London: Paul Chapman Publishing, 1993.

Хабарова Е.И. Экологический менеджмент как элемент устойчивого развития. Москва: Финансы и статистика, 2003.

Короткова Е.М. Менеджмент и экология: взаимодействие общества и природы. Санкт-Петербург: Питер, 2005.

Туриева З.В., Боброва А.Л., Гринина А.С. Основы экологического менеджмента. Москва: Инфра-М, 2002.

Хусанов Т., Безбородов Л., Безборобов Ю. Экологическая безопасность и управление. Ташкент: Fan, 2004.

Feraru G.S. Eco-management and environmental justice. Bucharest: Eco Publishing, 2001.

Rio Declaration on Environment and Development. Report of the United Nations Conference on Environment and Development. Rio de Janeiro, 1992 – <https://www.un.org/en/development/devagenda/environment.shtml>

Uruguay Round Agreement. WTO Environmental Standards Initiative, 1993.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>